



Turkistonda aloqa tizimi. Pochta, telefon, telegraf

Qodirova Gulmira Olimjanovna

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani
3 –sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix
fani o'qituvchisi, Namdu erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisdan aloqa tizimining xususan pochta, telefon, telegrafning paydo bo'lish tarixi haqida fikr yuritiladi. Ma'lumot, xabarlarni yetkazishda, hududning tez rivojlanishida, yangi savdo va iste'mol bozorining vujudga kelishida, shuningdek o'zaro davlatlararo ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarning taraqqiy etishida pochta, telefon, telegraf o'rnini benihoya katta ekani batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: pochta, telefon, telegraf, otliq pochta aloqasi, avtomobil yo'l, temir yo'l.

Abstract: In this thesis, the history of communication system in Turkestan, particularly post, telephone and telegraph. It is thought that the importance of the communication system in the delivery of information and messages, in the rapid development of the region, in the growth of trade, and in the creation of a new trade and consumer market.

Post, telephone, telegraph made an important contribution to the development of interstate socioeconomic political relations.

Key words: post, telephone, telegraph, horse mail, road railway.



Аннотация: В данной тезис рассматривается история возникновения системы связи в Туркестане, в частности почты, телефона и телеграфа.

Подробно поясняется, что роль почты, телефона и телеграфа в бурном развитии региона, создании нового торгово и потребительского рынка, а также развитии межгосударственных социальных, экономических и политических отношений чрезвычайно важна.

Ключевые слова: почта, телефон телеграф, конный пост, дорога, железная дорога.

Kirish.

XX asr ulkan texnologiya asri, globallashuv va integratsiya jarayonlari jadal tus olgan, axborot oqimi butun umumbashariyat olamini qamrab olayotgan ayni bir paytda xabarlar, ma'lumotlar, jo'natma kabilarni o'zaro integratsiyalashuvida aloqa tizimlari (pochta, telefon, telegraf) ning o'rni benihoya kattadir. Insoniyat hayotining bir qismiga aylangan, jamiyatdagi o'zaro ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida, ma'lumot va xabarlarni tarqatishda muhim sanalgan mazkur tizim faqatgina bugunning ixtirosigina emas, albatta. XIX asr oxirida O'rta Osiyoning butun hududida yagona, eng qadimiy aloqa turi - oddiy ko'rinishdagi pochta aloqasi mavjud edi

Pochtachilarning vazifalarini davlatning piyoda xat tashuvchilari yoki “chopar”, “elchi” deb atladigan xabarchilar bajargan.[8] Oddiy aholi ularning xizmatlaridan foydalana olmadi, ular davlat amaldorlariga yirik xon va boylarga shuningdek, savdo dvoryanlariga xizmat qilganlar. Oddiy xalqdan xabar yetkazish asosan aholi ko'p joylarda ular ommaviy yig'ilish joylarida choyxonalarda, bozor maydonlarida va masjidlarda og'izdan – og'izga o'tgan. Bu davrda maxsus aloqa korxonalari va pochta qutilari mavjud emas edi, chunki yozishmalar hajmi juda kichik va xizmat ko'rsatuvchi mijozlar doirasida juda tor edi. Pochta almashinuvi asosan hukumat



yo'zishmalaridan iborat edi. Aloqaning normal rivojlanishiga mintaqaning yuqori darajada rivojlangan davlatlardan ajratilishi feodal tartib o'zaro urushlar Xiva, Qo'qon Buxoro amirligining darajasi pastligi, aholining katta qismining savodsizligi ta'sir qildi.

O'rta Osiyoning mustamlakachilar tomonidan bosib olinishi, o'lkada general-gubernatorlikning tashkil etilishi va Turkiston harbiy okrugi aloqa vositalarini majburan rivojlantirishga olib keldi. Chor hukumati bu borada alohida e'tiborga ega edi. Aloqa tizimi yangi hududning tez "rivojlanishi" ga, yangi tashkil etilgan savdo-sotiqning kuchayishiga, Turkistonda yangi savdo va iste'mol bozorining vujudga kelishiga xizmat qildi [9].

Asosiy qism. Turkistondagi shaharlar va iqtisodiy muhim aholi punktlari o'rtasida pochta yo'llari qurilgan. 1858 yilda Turkiston va Rossiya o'rtasidagi eng qisqa yo'l bo'lgan Orenburg – Toshkent pochta yo'li bo'ylab, harakat boshlandi. 1865 yili Toshkent va Chimkent Toshkent va Aulie –Ata, Omsk va To'qmoq o'rtasida qurildi. Shu davrda Toshkent shahrida 1- otliq pochta aloqasi bo'limi tashkil etildi. 1868 – 1870 yillarda Samarqand, Kattaqo'rg'on, Qarshi va Shahrisabz pochta yo'nalishlari ochildi, 1865 va 1867 yillarda Toshkentga xat xabarlar yetkazilar va ko'pincha Turkiston o'lkasiga xizmat qilish uchun kelgan zobitlarga pul o'tkazilib turilardi. Ba'zan katta mablag'lar shu tarzda tashildi. 1867 yillarda Toshkentda komendant boshqarmasi qoshida pochta bo'limi tashkil etildi va shu yilning oxirida pochta xodimi, kollegial kotib D.Juk viloyatda pochta aloqasini tashkil etish loyihasini ishlab chiqish uchun yuborildi.[9] 1868 yil 29 fevralda D.Juk general-gubernator K.P.Kaufman tomonidan Toshkent shahri pochta boshqarmasining pochta bo'limi boshlig'i lavozimiga tayinlandi.[2, B. 462.] Sirdaryo viloyatining pochta qismi harbiy xalq ma'muriyati boshqarmasi va zudlik bilan Sirdaryo boshqarmasiga bo'ysundirildi. Qal'alarda pochta bo'limi bilan shug'ullanish ofitserlarga topshirilgan. Toshkentda xatlar konvertida olingan, fotokartalar, jurnallar soliqsiz kelgan.[2, B. 462]



Yangi Marg’ilonda otliq pochta bo’limlari tashkil etilgan. Pochta tarmog’i asosan shaharlarni qamrab olgan, qishloq joylarida deyarli yo’q edi. (U yerda otliq pochta stansiyalarida yordamchi pochta aloqasi muassasalari tashkil etilgan.) Shaharlarda pochta qutilari paydo bo’la boshladi. Ba’zi hududlarda ular viloyat bo’limlaridan mustaqil ravishda o’zlarining pochta jo’natmalarini tashkil etishga majbur bo’ldi, bu esa xatlarni mintaqaviy bo’limlarga olib borishni ta’minladi. Pochta ishining sifati past edi, uning harakatiga yo’ldan tashqari sharoit to’sqinlik qilardi.

Pul yozishmalari va posilkalarni qabul qilish 1869 yil 1 dekabrda Toshkentda ,hatto o’shanda ham dastlab faqat Virniy shahrida ochilgan. O’sha vaqtga qadar jismoniy shaxslarga pul o’tkazish quyidagi tarzda amalga oshirilgan;Pul jo’natmoqchi bo’lgan kishi masalan, Orenburgdan Toshkentga pul jo’natish haqida tilxat yozishi kerak bo’lgan.

1871 yil 1iyulda mazkur yildagi qonun asosida Toshkentda Toshkent bo’limi ochilib, Sirdaryo viloyati pochta bo’limi boshqarmasiga birlashtirildi. Ma’lumotlarni o’ziga xos tarzda matnli va raqamli shaklda diskret xabarlarni uzatish uchun xizmat qiladigan aloqa tizimi bu telegrafdir. Telegraf eng qadimgi aloqa tizimi bo’lib, rivojlanishning yuqori sur’atlari bilan ajralib turadi. Telegraf so’zi ruschadan tarjima qilinganda “men uzoq yozaman” yoki “masofani yozaman” degan ma’noni anglatadi.[5,B.36] Telegraf aloqasining paydo bo’lishi 1832 yilga to’g’ri keladi. Rus olimi P.L.Shilling dunyo amaliyotida 1- bo’lib, bu qurilmani yaratgan va sinovdan o’tkazgan.[5,B.36]

1873-yil 29-iyunda Toshkentda G’arbiy Sibir orqali Rossiya bilan telegraf orqali bog’lanadi va bu yerda Turkiston telegraf okrugiga bo’ysunuvchi telegraf stansiyasi ochildi. 1-xalqaro telegraf liniyasi ishga tushirildi. 1873 yil 13 iyundan uning ma’muriyati 1881 yilgacha Varnom shahrida bo’lib, shu yil okrugga o’tkazildi.[5,B.464]



1885-yil Toshkent Perovsk, Kazalinsk Orsk va Orenburg shaharlari orqali Yevropa Rossiyasiga telegraf orqali ulandi. 1881 yilning 2-yarmidan boshlab, Toshkent bilan Buxoro o'rtasida Kattaqo'rg'on orqali telegraf aloqasi ochildi.[5, B.464]

Toshkentda telegraf xizmatiga ayollar 80- yillarning boshlarida qabul qilina boshlandi. 1887 yil 1iyulda pochta va telegraf stansiyasi bitta muassasalarga birlashtirildi. Ayni paytda idorada 112 nafar mansabdor shaxs faoliyat yuritisa, shundan 60 nafarga yaqini ayollardir, 34 nafari pochta, 22 nafari xabarchi va qorovul tashkil etardi.[5, B.464] Pochta xizmati uchun 10 tiyin 145902 rubl 72 tiyin va telegraf 115099 rubl 38 tiyin sarflanadi. Ushbu muassasa faoliyati qay darajada rivojlanganligini eng yaxshi kiruvchi va chiquvchi telegrammalar soniga qarab baholash mumkin. 1873 yilda 3773 chiquvchi telegram va 3636 kiruvchi telegram ,1874 yilda 6317 chiquvchi va 6356 kiruvchi telegram bo'lgan.

Telefon-eng qulay va muhim aloqa vositasi va ommaviy telekommunikatsiya turi bo'lib, ma'lum tizimlar yordamida har qanday masofada joylashgan odamlarga ushbu turdagi aloqani amalga oshiradi. Toshkentda telefon 1892 yildan mavjud bo'lib ,oliy harbiy muassasalar va harbiy qo'mondonlar uchun ,1893 yil shahar korxonlarida , shu yili shahar mablag'lari hisobidan shahar boshliqlari va militsiya boshliqlari telefon orqali ulangan.[6, B.57] 1904 yili 1sentabrdan uning xizmat doirasi kengaygan, shaharda 180 ta mijoz bor edi.[6, B. 57] 1912 yili abonentlar soni 710 taga yetdi, shulardan 97 tasi bepul edi.

Shahar telefoni 8 yoshga to'lganida uning abonentlar soni 4 baravar ortdi, bundan tashqari shaharda 4 ta telefon – avtomat , shundan temir yo'l vokzalida , Toshkent temir yo'l tovar stansiyasida ,Voskresenkiy bozorida va shahar boshqarmasida [6,B.57] bor edi. 1907 yilda telefon tarmog'ini ikki simli kabel tizimiga o'tkazish va abonentlar sonini ko'paytirish masalasi ko'ndalang qo'yildi. Telefon tarmog'ini qayta jihozlash shartnomasi “ Toshkent –Tramvay” Belgiya anonim jamiyati bilan tuzildi va bu ishga shaharga beg'araz 45 ming rubl miqdorida ssuda berildi. Barcha ishlar qiymati 77810



rublni tashkil etdi. 1907- 1908 yillarda 58516 rubl sarflanib, deyarli barcha zarur narsa sotib olingandi.[1,B 40] Telefonni qayta jihozlash 1912 yil tugallangan. Natijada u 1000 abonentga xizmat qila boshlagan.[1,B.40] 1914 yilda 970 abonent bo'lgan ular miqdorining kamayishiga sabab ayrim harbiy qismlarning ketishi va safarbar etilishidir. Havo kabellarining umumiy uzunligi 22,5 verst , yerosti kabeli-4 verst edi.[2,B.91] 33 telefonchi qiz,5 kommutator, 15 shogird qiz bo'lgan.[3] 1910 yildan telefon daromad keltira boshlagan. 1910 yilda ular 27638 rubl, 1908 yilda 17372 rubl[3], 1911 yil 14129 rubl, 1913 yilda 17806 rubl bo'lgan.[2,B.12] Shuni ta'kidlash joizki shahar telefon xizmati xarajatlari katta bo'lgan. 1908 yilda u 17372 rublni [2,B 12] 1904- 1908 yillar ichida 193332 rublni, daromadlar 171501 rublni tashkil etgan.[4, B.53] Telefon tarmog'i oz bo'lsa-da, shaharning “ eski qismi”ga ham o'tkazilgan. U yerda 54 abonent bo'lib, 1900 sajen uzunlikdagi yerosti kabeli eski shahar bozori o'rtasidagi kabel qutichasiga joylashgan.[6,B.57] Telefon tarmog'ining Toshkent shahar telefoniga umumiy tavsif berishga harakat qilgan mudir ma'lumotlariga ko'ra, ikki simli tarmoq qayta jihozlanib, vakolatli shaxslar fikricha yaxshi va ravon ishlay boshlagan, u Rossiyaning ko'p shaharlaridagidan ancha yaxshi bo'lgan, albatta. Ikkala mamlakat poytaxti hamda Varshava, Odessa kabi shaharlari bundan mustasno. U yerlarda signal tizimi markaziy batereya bo'yicha ishlagan.[6,B.57] 1912 yilda telefon tarmog'I 72 verstga cho'zilgan, shundan 11 versini havo kabeli va 5 verstga yaqinini yerosti kabeli tashkil etgan.[7]

Xulosa. Telefon, pochta telegrafni paydo bo'lishi Rossiya imperiyasining o'lkani o'z izmida saqlash, boshqarish uchun muhim strategik ahamiyat kasb etgan. Bu borada bajarilgan ishlar avvalo shu maqsaddan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan. Aloqa tizimlari barcha tarixiy davrlarda mamlaktni integratsiyalashuvi, mamlakatni globallashtirishda muhim rol o'ynagan.

XIX asr oxirida Turkistonda tovar –pul munosabatlarining sezilarli rivojlanishi, savdo va sanoat burjuaziyasining paydo bo'lishi 80-90 yillarda kelib chiqqan, mintaqada kapitalistik manufaktura keyin esa savdo –sanoat bank kapitalining



rivojlanishi, boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalari aloqa kommunikatsiyalar rivojlanishiga turtki bo'ldi.

1876 yil viloyatda 1- navbatda Samarqand, Marg'ilon, Kattaqo'rg'onda elektr telegrafi paydo bo'ldi. Birozdan keyin Buxoro va Xiva xonligida telegraf liniyalari ochildi. Shunday qilib,

Buxoroda 1884 yil 1-telegraf liniyasi qurildi, 1900 yilda bunday aloqa Qo'qonni Andijon bilan , 1901 yil Namanganni Chust bilan bog'ladi. Chor hukumati Turkistonda yangi telegraf liniyalarini qurish va rivojlantirish uchun katta mablag' ajratdi. Turkistondagi telegraf liniyalarining umumiy uzunligi 1900 yilga kelib, 6136 verstni, shu jumladan tuproq yo'llari 3655 verstni tashkil etdi. 1901 yil 12 maydagi 33-sonli maxsus buyrug'i bilan Toshkent garnizoni qo'shinlari va bo'limlariga 1901 yil 5maydan boshlab, Toshkent shahri bilan Troitskiy qishlog'i o'rtasida telegraf aloqasi o'rnatilganligi ma'lum qilindi.

Xuddi shu farmon bilan o'tgan yillar tajribasidan kelib chiqib, Toshkent shahri bilan Chimyon o'rtasida geliografik aloqa o'rnatildi. Shu ikki hudud o'rtasida xabarlarni pullik asosda qabul qilish va uzatish ishlari amalga oshirildi. 1886 yil aprel oyida Turkistonda pochta –telegraf okrugi idorasi tuzilib, Turkistonning barcha aloqalari unga bo'ysundi. Viloyatda shahar telefonining paydo bo'lishi va rivojlanishida iqtisodning yuksalishi, Turkiston shaharlarida sanoat, bank va tijorat korxonalarining moliya muassasalarining paydo bo'lishi katta rol o'ynadi .

1887 yilda pochta- telegraf okrugi bo'limi tarkibida 1- telefon aloqasi o'rnatildi. 1891 yilda Toshkentda 1- umumiy foydalanish uchun telefon aloqasi o'rnatildi.¹

1901 yilga kelib, Toshkentda telefondan foydalanuvchilarning ro'yxati 55 abonentga yetdi. 1891 yil iyul oyida Turkiston pochta -telegraf okrugi boshqarmasi

¹ Telegraf aloqa –[Vikipedia.https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Telegraf_aloqa](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Telegraf_aloqa)



bilan Turkiston general- gubernatorligi o’rtasida g’azna mablag’laridan foydalangan holda Toshkentda tarmog’ini yo’lga qo’yish to’g’risida muzokaralar boshlandi, faqat 1898 yilda uzoq davom etgan yozishmalardan so’ng, Toshkentda telefon tarmog’i qurishning taxminiy sxemasi tuzildi.

1895 yili Xiva xoni M.Rahimxon Xiva shahrida 1- shaxsiy telefon stansiyasini qurdirdi. Bu Shvetsiyaning L.M.Ericson kompaniyasining MB tizimining 20 raqami uchun qo’lda ishlaydigan stansiya edi. 1917 yilga kelib, Xivada 100 ga yaqin telefon apparati ishlar edi.

1927 yilda Xiva shahrida 40 nomerli MB-40 kommunikatori ishga tushirildi. 1904 yil 7 sentabrda Siemens va Xalske kompaniyalarining 200 ta raqamga mo’ljallangan qo’lda ishlaydigan 1- umumiy telefon stansiyasini ishga tushirish to’g’risida bitim imzolandi. 1904 yil Toshkentda 1- davlat telefon stansiyasi ishlay boshladi. Toshkentdan keyin Samarqandda ham shunday stansiya tashkil etildi. Turkistonda shahar telefon stansiyalari qurilishi pochta –telegraf aloqalari korxonalariga qaraganda birmuncha boshqacharoq sharoitlarda amalga oshirilgan. Deyali telegraf bosh Boshqarmasi (1802-1884) nizomiga ko’ra, agar bo’lajak abonentlardan kamida 50ta ariza bo’lsa, telefon stansiyalari davlat hisobidan qurilishi mumkin edi. Nizom xususiy shaxslar tomonidan davlat foydalanishi uchun telefon stansiyalarini qurishni taqiqlagan. Texnik xizmat ko’rsatishining yuqori narxi tufayli telefonni o’rnatish uchun arizalar juda kamdan –kam hollarda qabul qilindi. 1901 yil 26 iyulda Turkiston Ichki Ishlar va xususiy tadbirkorlarga umumiy shahar telefon tarmog’ini qurish va undan foydalanish huquqini beruvchi buyruq imzolandi. Davlat va xususiy telefon stansiyasi bir-biri bilan raqobatlashdi. Xususiylarning texnik xizmati davlatnikiga qaraganda yaxshiroq edi. Davlatga qarashlinikilarda ishchilarning maoshi past edi.

Aloqa taraqqiyoti jihatidan Turkiston markaziy rayonlar Yevropa qismidan birmuncha orqada qolishda davom etdi. Turkistonda 1911 yilga kelib atigi 85 ta aloqa korxonasi mavjud edi. Shundan 9 tasi pochta , 5 tasi telegraf, qolganlari



pochta-telegraf korxonalari mavjud edi. 1909 yil yanvar oyida 440 ta pullik abonent va 76 ta abonent bor edi. Vabo epidemiyasi davrida 90 dan ortiq bepul telefonlar o'rnatildi. Shuning uchun telefonlar shahardagi barcha shifokorlarda va barcha shahar politsiya bo'limlarida paydo bo'ldi. 1911 yilga kelib, Toshkent telefon tarmog'ida abonentlar soni 708 raqamga yetdi.

Turkistonda aloqa tizimi mamlakatda tartibsizliklar qo'zg'olonlar avj olgan davrlarda og'ir talafot ko'rdi. Chunki qo'zg'olonlarda Chor ma'murlariga qarashli barcha obyektlar qatori, ularning markaziy boshqarma bilan aloqasini ta'minlashga xizmat qiladigan telefon, telegraf tizimi tarmoqlari uzib qo'yilganligini tarixdan bilishimiz mumkin. Shunday bo'lsa-da, mamlakatda aloqa tizimi o'zaro savdo-sotiqning rivojlanishi, tovar-pul munosabatlarining, bank va tijorat korxonalarining taraqqiy etishiga katta hissa qo'shdi. Dastlab oddiy ko'rinishda (o'gzaki xabarlarni yetkazish, choparlar, otliq pochta ,avtomil yo'li) keyinroq birmuncha taraqqiy etgan aloqa tizimi insoniyatning xo'jalik faoliyati, jamiyat va davlat ravnaqi , turmush farovonligi xalqimiz tinchiligini ta'minlashda katta o'rin egallagan.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ж.Исмоилова. XIX асрнинг 2- ярми- аср бошларида Тошкентнинг “Янги шаҳар” қисми тарихи. Т. “Фан ва технология” 2004.
2. Палан К.К Городское управление С.П.Б.1910.
3. Уз.Рес.МДА.
4. Россия Марказий Давлат тарих архиви.
5. А.И.Добромысловъ.Ташкентъ прошломъ и настоящемъ исторический Очерк. Т.1992.
6. Л.К.Бродский . 35 летию городского общественного управления.Т.1912.
7. В.Г.Дурнев. А.Ф.Зеневич.Электросвязь. Введение в специальность.М.Радио и связь.1988.
8. История развития связи Узбекистан.Письма о Ташкенте.<https://my Tashkent. Uz/2008/08/05/istoriya-razvitiya-svyazi-uzbekistana/>
9. Pochta texnikasi-vikipediya.https://uz/m/Wikipedia/ org.wiki./Pochta _texnikasi.